



Semantic analysis of loanwords from German in the education system found in official and administrative documents

Fotima ERGASHEVA¹

Termez State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received February 2025
Received in revised form
10 March 2025
Accepted 25 March 2025
Available online
25 April 2025

Keywords:

mastering,
education,
German,
Russian,
Uzbek,
official departmental style,
law,
decree,
resolution.

ABSTRACT

This article will focus on lexemes related to the education system, translated from German into Uzbek, their etymology, semantic edges in Russian, German and Uzbek, as well as their original meaning in the native Word, the scope of application in official departmental documents in Uzbek.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss4/S-pp204-208>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Nemis tilidan ta'lim tizimiga kirgan o'zlashma so'zlarning rasmiy-idoraviy hujjatlarda uchraydigan semantik tahlili

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

o'zlashma,
ta'lim,
nemis tili,
rus tili,
o'zbek tili,
rasmiy-idoraviy uslub,
qonun,
farmon,
farmoyish.

Mazkur maqolada nemis tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan ta'lim tizimiga oid leksemalar, ularning etimologiyasi, rus, nemis va o'zbek tillaridagi semantik qirralari, hamda uning tub so'zdagi asl ma'nosi, o'zbek tilidagi rasmiy-idoraviy hujjatlarda qo'llanilish doirasi haqida so'z boradi.

¹ PhD student, Termez State University

Семантический анализ заимствованных из немецкого языка слов, встречающихся в официально-деловых документах системы образования

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

освоение,
образование,
немецкий,
русский,
узбекский,
официально-
ведомственный стиль,
закон,
указ,
постановление.

В данной статье речь пойдет о лексемах, относящихся к системе образования, освоенной с немецкого на узбекский язык, их этимологии, семантических краях в русском, немецком и узбекском языках, а также об их первоначальном значении в исконном Слове, о сфере применения в официальных ведомственных документах на узбекском языке.

KIRISH

Tilshunoslikda bir tildan ikkinchi tilga biror bir leksemaning kirib kelishiga asosiy omillardan biri ta'lim sohasidir. Ta'lim sohasidagi chet el adabiyotlari, tajriba almashinuvlari, biror bir davlatga ta'lim sohasidagi tashriflar, hamkorliklar natijasida o'zlashmalar avval og'zaki nutqda, keyinchalik esa yozma nutqda sekin asta ta'lim leksikasida joy ola boshlaydi. Bizning ushbu maqolada maqsadimiz ta'limga oid nemis tilidan kirib kelgan terminlarni tahlil etishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari, qarorlari, Vazirlar Mahkamasi, Vazirliklarning qonunosti hujjatlarida shunday terminlarni ishlatilishini guvohi bo'lamiz. O'zbek tilida keng qo'llaniladigan faol nemis tili orqali o'zbek tili leksemasiga kirib kelgan o'zlashmalardan biri *fakultet* leksemasidir. Fakultet O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 13.12.2024 yildagi 836-son "Oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida ham qo'llangan "... Attestatsiya o'quv jarayoni jadvalida ko'rsatilgan muddatlarda, fakultet dekani yoki o'quv-uslubiy ishlarga mas'ul tarkibiy bo'linma (bo'lim, boshqarma) tomonidan tayyorlangan hamda oliy ta'lim tashkiloti o'quv ishlari bo'yicha prorektori tomonidan tasdiqlangan attestatsiya jadvali asosida o'tkaziladi." [1]

F. Klugening etimologik lug'atida *fakultet* - lotincha *facultas* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, bu esa o'z navbatida *fakli-tat-s* shaklidan olingan. Bu so'z, qadimgi lotincha *facul*, ya'ni *fakli*, (biror ishni bajarish imkoniyati) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, bu esa lotincha *facilis* (oson) so'ziga taalluqli. So'z dastlab *quvvat*, *kuch* ma'nosini bildirgan, so'ng yunon tilidagi δύναμις (*dýnamis*) so'ziga tarjima qilingan bo'lib, Aristotel bu so'zni ma'lum bir bilim sohasi bo'yicha mahorat ma'nosida ishlatgan. Shu tariqa bu so'z "bilim sohasi, tadqiqot sohasi" degan ma'noga ega bo'lgan.

Universitetlar tashkil topgan paytda *fakultet* biror fan sohasining barcha o'qituvchilari va tinglovchilarining umumiy atamasi bo'lgan. Dastlab o'qituvchilar jamlanmasi *collegium facultatis* deb atalgan. Keyinchalik bu atama asosiy fan sohasiga oid barcha o'qituvchilar degan ma'noda qo'llanila boshlagan. Masalan, 1508 yildagi "Codex diplomaticus Saxoniae regiae" nomli hujjatda quyidagicha keltirilgan: «Ordinarius va

boshqa doktorlar Leyptzig universitetida huquqshunoslik fakultetida» -degan ma'lumot keltirilgan [6].

Nemis tilining Duden universal lug'atida ushbu leksemaning bir nechta ma'nolari berilgan *fakultet* – Fakultät lotinchadan *facultas* (bilim va tadqiqot sohasi) so'zidan olingan, hamda uning nemis tilida quyidagi semantic qirralari mavjud: 1. Oliy ta'lim sohasida a. O'zaro bog'liq fanlar yoki ilmiy yo'nalishlardan iborat, universitet yoki oliy o'quv yurtining ta'lim va boshqaruv bo'linmasi: b) Fakultetga tegishli bo'lgan barcha o'qituvchilar va talabalarining yig'indisi. c) Fakultet joylashgan bino yoki xonalar majmuasi. 2. Boshqa din, e'tiqodni targ'ib qilish. 3. Matematikada tabiiy sonlar ketma-ketligi asosida tuzilgan ko'paytma kabi ma'nolari izohlangan.[7]

Duden nemis tilidagi xorijiy so'zlar lug'atida *fakultet* quyidagicha izohlangan 1. O'zaro bog'liq fanlar yoki ilmiy yo'nalishlardan iborat, universitet yoki oliy o'quv yurtining ta'lim va boshqaruv bo'linmasi: b) Fakultetga tegishli bo'lgan barcha o'qituvchilar va talabalarining yig'indisi. Fakultas so'ziga bog'liq bo'lsa a. (katolik cherkov huquqida) yuqori cherkov lavozimidagi shaxsning quyi lavozimidagiga o'tkazadigan huquqlari. b. Matematikada mahsulot (ya'ni ko'paytma), uning ko'paytuvchilari bir dan boshlangan natural sonlar ketma-ketligining bo'linmalari orqali hosil qilinadi.[10]

M. Fasmer rus tilining etimologik lug'atida fakultet so'zini rus tiliga kirib kelishini quyidagicha tavsiflaydi *fakultet* - XVI asrda nemis tili orqali lotin tilidan kirib kelgan o'zlashma bo'lib, harfma - harf tarjima qilinganda kuch degan ma'noni bildirsa, yunon tilidagi δύναμις kalkalashgan deb qaralganda bu so'z bilim sohasi degan ma'no kasb etishi to'g'risida ma'lumot keltirgan.[9]

O'zbek tilining izohli lug'atining 1981-yilgi nashrida *fakultet* - o'zbek tiliga rus tili orqali lotin tilidan kirib kelgan, va izohi oliy o'quv yurtining ma'lum ixtisosligiga doir fanlar o'qitiladigan bo'limi degan ma'lumot keltirilgan.[4]

O'zbek tilining izohli lug'atining 2006, 2023-yillardagi nashrida *fakultet* – nemis tilidagi *Fakultät* so'zidan o'zbek tiliga, lotin tilidagi *facultatis* leksemasidan nemis tiliga ko'chgan o'zlashma va uning lotin tilidagi ma'nosi qobiliyat, imkoniyat, o'zbek tilida esa Oliy o'quv yurtining ma'lum ixtisoslik bo'yicha tegishli fanlar o'qitiladigan bo'limi – izohi berilgan.[3,5] Demak fakultet o'zbek tiliga nemis tili orqali lotin tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan leksema bo'lib, uning dastlabki lotin tilidagi ma'nosi (imkoniyat, qobiliyat) o'z kuchini yo'qotib o'zbek tiliga, oliy o'quv yurtidagi bo'lim, hamda biror bir ilmiy soha yoki yo'nalish ma'nolari doirasida ishlatiladi, hamda ona tilimizda fakultet so'zini muqobil varianti mavjud emas. Biz misol keltirgan Vazirlar Mahkamasi qarorida fakultet o'zlashmasi Oliy o'quv yurtining bo'limi semantikasi qo'llangan. Fonetik va grafik jihatdan o'rganadigan bo'lsak, nemis tilida “ä” umlauti “e” unlisi tarzida talaffuz qilinadi, lekin grafikada “ä” umlauti yoziladi. O'zbek va rus tillarida *fakultet* qanday aytilsa, xuddi shunday yoziladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son “Oliy ta'limdan keyingi ta'lim to'g'risida”gi qarorida nemis tili orqali o'zbek tiliga o'zlashgan o'zlashma doktorant o'zlashmasini uchratamiz.[2] “...doktorant — ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasalariga tayanch doktorantura yoki doktoranturaga belgilangan tartibda qabul qilingan shaxs;”. *Doktorant*- nemis tilida dastlab doktor so'zi negizida shakllangan bo'lib, F. Klugening etimologik lug'atida doktor - nemis tilida mujskiy rodga tegishli bo'lib akademik daraja, unvonni anglatadi. Etimologiyasiga ko'ra lotin

tilidan nemis tiliga o'zlashgan, «Doktor» so'zi lotin tilidagi *doctor* so'zidan olingan bo'lib, «o'qituvchi» ma'nosini anglatadi va *docere* «o'rgatmoq» fe'lidan kelib chiqqan.

Shuningdek, Luther 1520-yilda «Universitetlarning doktorlari» haqida so'zlab, ularni «o'qituvchi» deb atagan. Doktor so'zi ilgari «o'qituvchi» sifatida ishlatilgan, masalan, 1629-yilda Weimar shahrining gazetasidagi nashrlarning birida nashrida «,dem wil ich von hertzen gerne zu full sitzen und jn lassen meinen *Doctor* sein».» deb yozilgan. Bu so'zning ma'nosi asta-sekin rivojlanib, uni akademik ta'lim sohasidagi o'qituvchining unvoni sifatida ishlatish boshlandi, unga o'quv fani ham qo'shilgan: Dr. med. dastlab «tibbiyot fanlari o'qituvchisi» ma'nosini anglatgan.

Keyinchalik, «doktor» akademik unvon sifatida keng tarqalib, bu unvon faqat o'qituvchilarga emas, balki o'qituvchilik bilan shug'ullanmaganlarga ham berila boshlandi. 1500 – yildan boshlab, ko'cha tilida meditsina xodimlarini ham doktor deb atash boshlandi, bunga sabab 15-asrning ikkinchi yarmida «Doktor» shuningdek shifokor kasbi sifatida ham ishlatiladi. Bu rivojlanish shundan kelib chiqadiki, meditsina doktori sifatida ta'lim olgan shaxslar ko'pincha universitetdagi o'quv jarayonidan tashqariga chiqib, o'z kasbiy faoliyatini boshlaydilar. Ba'zan «Doktor» faqat ilmiy ta'limga ega bo'lgan shifokorni anglatadi, bu esa bilimdan yomon foydalanadigan va soxta shifokorlardan farq qiladi.

Hozirgi kundagi til va kundalik nutqda esa «Doktor» so'zi ko'pincha «Shifokor» ma'nosida ishlatiladi. «Doktorant» — akademik darajani olish uchun ishlayotgan shaxs; eng qadimgi XVI-asr misollarda «Doctorant» (lotincha hozirgi zamon fe'liga mos keladi) va «Doctorant» (lotincha «doctorandus» — «doktorlik darajasini olish uchun nomzod») shakllari mavjud, bu «doctorare» (doktorlik darajasini berish yoki olish) lotincha fe'lidan kelib chiqqan.

Ommaviy tilda esa bu shaklning passiv ma'nosi yo'qolgan va u faqat faol ma'noda *doktorant* ishlatilmoqda.[6] Nemis tilining Duden universal lug'at kitobida esa *doktorand* – nemis tiliga o'rta asr lotin tilidan olingan bo'lib, ilmiy dissertatsiya ishini yozayotgan shaxs – deb izohlangan.

Nemis tilining xorijiy so'zlar lug'atida *doktorand* – Dissertatsiya ishi bilan doktorlik unvonini olish uchu himoyaga chiqayotgan kishi ma'nosida izohlangan.[7] M. Vasmerning rustilining etimologik lug'atida doktorant so'zining etimologik tarixi mavjud emas.

L.P. Krisinning lug'atida *doktorant* – doktor so'ziga -ant suffeksini qo'shish orqali yasalgan leksema bo'lib, doktorlik unvonini olish uchun ilmiy yozayotgan ilmiy muassasaga biriktirilgan shaxs.[8] O'zbek tilining izohli lug'atining 2006,2023-tilgi nashrlarida *doktorant* – nemis tilidagi «Doktorant» so'zidan olingan bo'lib, - doktorlik ilmiy darajasini olishga tayyorlanayotgan, bu so'z esa nemis tiliga lotin tilidan kirib kelgan bo'lib, *doctorantis* - ta'lim olayotgan leksemasidan shakllangan, va doktorlik dissertatsiyasini yozish uchun biror ilmiy muassasaga biriktirib qo'yilgan fan nomzodi. Ikkinchi ma'nosi ilmiy tadqiqot institutlari va oliy o'quv yurtlari huzuridagi uch yillik oliy malakali ilmiy xodimlar tayyorlash tizimida o'qiyotgan tadqiqotchi.[3,5]

O'zbek tilining izohli lug'atining 1981-yilgi nashrida *doktorant* – rus tilidan o'zbek tiliga kirib kelgan o'zlashma sifatida qayd etilgan va doktorlik dissertatsiyasini yozish uchun ilmiy muassasaga bog'lab, biriktirib qo'yilgan va shu yo'l bilan doktorlik ilmiy darajasini olish uchun tayyorlanayotgan olim -izohi berilgan.[4]

Demak doktorant- o'zbek tiliga nemis tilidan kirib kelgan o'zlashma bo'lib, o'zbek tilining dastlabki lug'atida rus tilidan kirgan o'zlashma deb kiritilgan, hamda nemis tili, rus tili, o'zbek tilida bir xil ma'no fan doktori ilmiy darajasini olish uchun doktoranturada tahsil olayotgan, yoki mustaqil ravishda doktorlik ilmiy darajasi uchun ilmiy ish dissertatsiyasini yozayotgan shaxs ma'nosida keladi. O'zbekistonda doktorantura ikki bosqichdan iborat bo'lganligi uchun doktorant tushunchasi ikki xildir: tayanch doktorant (PhD, fan nomzodi), doktorant(DSc,fan doktori). O'zbek tilida doktorant yoki tayanch doktorant so'zlarining senonim so'zi ilmiy tadqiqotchi lekemasidir.

O'zbek tilining fonetikasi va grafikasida nemis tilidan o'zbek tiliga bu so'z o'zlashganda "d" til oldi, jarangli undosh tovushi, "t" til oldi, jarangsiz undosh tovushiga almashgan. Lekin og'zaki nutqda "doktorant" emas "daktarant" tarzida talaffuz qilinadi, imlo qoidasiga asosan "doktorant" yoziladi.

Doktorant so'ziga rus tilida "-ura" faoliyat va jarayonni ifodalovchi ot yasovchi qo'shimcha qo'shilib, doktorantura – ilmiy-tadqiqot institutlari, hamda oliy o'quv yurtlari huzuridagi 3 yillik oliy malakali ilmiy xodimlar- fan doktorlari tayyorlash shakli degan izoh keltirilgan va bu so'z o'zbek tiliga rus tilidan o'zlashgan. Doktorant so'zini o'zbek tilida, ilmiy izlanuvchi, tadqiqotchi kabi maqbul variantlarini uchratishimiz mumkin.

O'rganishlarimiz natijasida shunday xulosaga keldikki, biz tahlil qilgan ikkala leksema ham asrlar natijasida bir tildab-ikkinchi tilga o'tganda o'zining asl semantik qiymatini yo'qotib, matnlarda boshqa ma'noda qo'llanila boshlagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 13.12.2024 yildagi 836-son "Oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son "Oliy ta'limdan keyingi ta'lim to'g'risida"gi Qarori.
3. E.Begmatov, A. Hojyev, A. Madvaliyev, N. Mahmudov "O'zbek tilining izohli lug'ati". G' G'ulom. – Toshkent, 2023.
4. Akobirov S.F., Aliqulov T.A., Ibrohimov S.I. "O'zbek tilining izohli lug'ati". – Moskva: Rus tili nashriyoti, 1981.
5. Begmatov E., Hojyev A., Madvaliyev A., Mahmudov N. "O'zbek tilining izohli lug'ati". "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" nashriyoti. –Toshkent, 2006.
6. Kluge F. "Etymologisches Wörterbuch der Deutschen Sprache." J.Guttentag. nashriyoti. Berlin 1967
7. Duden. "Universales Deutsches Wörterbuch." Duden Verlag. Berlin. 2019.
8. Крысин Л.П. "Толковый словарь иноязычных слов". – Москва, Эксмо. 2006.
9. Vasmer M. Russisches Etymologisches Wörterbuch. Carl Winter Universitätsverlag. Heidelberg. 1953
10. Duden Das Fremdwörterbuch. Dudenverlag. Mannheim, Zürich. 2010
11. Khudaykulov, A. E., & Isoqova, F. S. (2024). FUNCTIONING OF BORROWED WORDS OF ENGLISH ORIGIN IN UZBEK POLITICAL TEXTS. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 5(08), 113-125.
12. Bakhrom, E. F. (2022). Methods for developing reading competence in German.